



МУҒАЛЛИМ ҲӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ

Илимий-методикалық журнал

№ 3/2 2025



гуманитарные науки
естественные науки
технические науки





МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2025

3/2-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қаары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

3/2-сан 2025

май - июнь

**Қарақалпақстан Республикасы мектепке шекемги ҳәм мектеп билимләндирүү
министригү, Қары Ниязий атындағы Тәрбия педагогикасы миллий институты
Карақалпақстан филиалы**

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Маңсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ
Сапардурды АБАЕВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ
Мавлюда АЧИЛОВА
Азизжан АБДАЗИМОВ
Шұхрат АБДУЛАЕВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Злийха ОРАЗЫМБЕТОВА
Мансурбек ОНГАРОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхұјжа АЙТБАЕВ
Тұлқин АЛЛАЁРОВ
Мариғжон АХМЕДОВ
Гулзабира БАБАШЕВА
Үмида БАХАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Гулбахар БЕКИМБЕТОВА
Комил ГУЛЯМОВ
Маманазар ДЖУМАЕВ
Аскар ДЖУМАШЕВ
Дилдора ДАВРОНОВА
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шымкент,
Қазақстан)
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ
Шохида ИСТАМОВА
ВОХИД КАРАЕВ
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)
Сарсенбай КАЗАХБАЕВ
Мохира КУВВАТОВА
Джавдод ПҮЛДАТОВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шымкент,
Қазақстан)
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Пердебай НАЖИМОВ
Аскәrbай НИЯЗОВ

Сабит НУРЖАНОВ
Захия НАРИМБЕТОВА
Хұшбөқ НОРБҮТАЕВ
Ойниса МУСУРМОНОВА
Уролбой МИРСАНОВ
Сафо МАТЧОН
Шукурилло МАРДОНОВ
Абдулхамид МИРЗАЕВ
Абдимурат ЕСЕМУРАТОВ
Даулетназар СЕЙИТКАСЫМОВ
Қалыбай ПРИМБЕТОВ
Раъно ОРИПОВА
Бахтиёр РАХИМОВ
Норим РАХМАНОВ
Мұқаддас РАХМАНОВА
Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Тажибай САПАРБАЕВ
Мухаббат САЛАЕВА
Гүзәл СОДИҚОВА
Улбосын СЕЙТЖАНОВА
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Нурзода ТОШЕВА
Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Тажикал ҚУДАЙБЕРГЕНОВА
Ойбахор ШАМИЕВА
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дүйсназар ХИММАТАЛИЕВ
Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Жавлонбек ҲУДОЙБЕРГЕНОВ
Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА
Қонысбай ЮСУПОВ
Гулара ЮСУПОВА



МАЗМУНЫ

ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Shamshetdinova G.A. Feyil sóz shaqapların úyreniwde oyın hám mashqalalı - izleniw usıllarınan paydalaniw	8
Sapaeva F.D. She'riy tarjimada qoziya talablarini saqlash muammosi	12
Абдуллаев Қ.Ф., Боймуродова Г.Т. Зардыштийлик таълимоти маданий анъаналарининг мумтоз форс адабиётида ifodalaniши	20
Xoshimova D. R. O'quv materiallarda ingliz tilidagi ifodali konnotativ leksikaning ekspressivlik amaliy ahamiyati	25
Xaldarchayeva G.S. Talabalarni kreativ fikrleshgä o'rgatish tashkil qilish, o'tkazish (nofilologik ta'lîm yonalishidagi otmrlarda interaktiv metod va uning hususiyatlari)	30
Abduqahhorova X.A. Izohli lug'atlarda illyustrativ misollarning berilishi	37
Юсупова Ф.М. Маданиятларо мулоқот компетенциясини ривожлантиришнинг усул ва йўллари	41
Atadjanova M.A. Yumor diskursning pragmatik xususiyatlari	52
Базарова Н.Ш. Неологизмы современного русского языка начала 2020-х годов: тенденции развития лексики	57
Наркузиева Г.З. Обучение аудированию на уроках русского языка	66
Karimova A.A. Strategies for ensuring cultural adaptation in foreign language teaching through innovative approaches	71
Axrorrova M.N. Interactive reading tasks and peer feedback techniques	82
Karimova A.A. Gamification in english language teaching: enhancing motivation and engagement in higher education	91
Otakhonova Kh.A. Improving students' work with media texts based on the linguacultural approach	102
Rakhmatullaeva N.N. The role of interactive speaking tasks in improving communicative competence in English	109
Axrorrova M.N. Innovative techniques for teaching descriptive writing to efl learners using visual prompts and mind maps	115
Rakhmatullaeva N.N. The role of pronunciation practice in developing effective english communication	124
Elmurodov U.Ya. Meaning and polysemy: semantic systems in english	129
Nurmuxammadova D.J. Creating equitable learning environments through clil technology: bridging linguistic and cognitive gaps in education	133
Matenova F. M. The peculiarities of the works of Ivan Turgenev: the comparison with chinese culture	139

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Xojametov A.A. Pedagog alimlardıń tárbiyashı shaxsı tuwrısındaǵı pikirleri	144
Sultaniyazova A.B. Mashqalalı tálım beriydiń bazi bir măseleleri	147
Qudiyarova V.K. Lingvodidaktik nutqiy kompetensiyalarını qo'llash usulları va darajaları haqida	151
Qudiyarova V.K. Ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini integratsion lingvodidaktik rivojlantirishning tadqiq qilinish masalalari	156
Bobonazarova S.O. Talabalarni ijodiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda akmeologik yondashuvdan foydalanshning ahamiyati	161
Olimov S.A. Oliy ta'lîm muassasaları talabalarını o'qitishda raqamlı texnologiyalarning o'rni	166
Abdalova S.R. Talabalarining mustaqil fikrlesh qobiliyatları shakllantirish	173
Ergashev B.B. O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda loyihalash kompetentligini rivojlantirish metodikasi	180
Tojiyeva Sh.M. Ijodiy faoliyatni shakllantirishning uslubiy yondashuvlari va amaliyotlari haqida	188



Usarov J.E., Yusufbekova X.A. Pedagogik ta'limg innovatsion klasteri ta'limg tizimidagi muammolar yechimining pedagogik imkoniyati sifatida	196
Sharaxmatova A.K. Kredit-modul ta'limg tizimiga o'tishning ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rghanish	203
Rahmonova G.N. Pedagogik ta'limg jarayoniga deontologik yondashuvning tutgan o'rni – pedagogik muammo sifatida	209
Saidova D.B., Ergasheva H.D. Biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish	215
Yarova S.B., Ahmadjonov J.O'. Zamonaviy ta'limg tarbiya va uning mohiyati	220
Ataxanova S.O. Talabalarda sog'lom tafakkur namoyon bo'lishining o'ziga xos jihatlari	227
Kamolova N.T. Pedagogik ta'limg talabalarning intellektual kompetentligini rivojlantirish	234
Jumamuratov A.P., Utebaev T.T. Multiagent tizimini yaratish asosida talabalarning o'qitish jarayonini optimallashtirishning nazariy asoslari	242
No'monjonova D.S. Ta'limg klasteri muhitida «Talaba talabaga ustoz» modeli	246
Jumanov A.A., Ahmadjonov J.O'. Masofaviy ta'limg innovatsion pedagogik imkoniyatlari va muammolari	251
Yusufbekova X.A. Mustaqil ta'limg, uning tashkil etilishi, maqsadi va vazifalari	258
Shodiyeva G.X. Turkiston jadid maktablarining tashkiliy mazmuni, g'oyaviy manbaasi, o'quv rejalarining pedagogik mohiyati	263
Djilkibayeva N.I., Normo'minov B.U. Oliy ta'limg muassasalarida talabalarni zamonaviy yondashuvlar asosida o'qitish uzlucksizligi	270
Raxmonova S.M. Talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari	275
Shodiyeva S.U. Talabalarни texnik-konstrukturlik kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	284
Abdullayeva M.R. Talabalarni ma'nnaviy-axloqiy kompetensiyalarini pedagogika fani konsepsiysi asosida takomillashtirish - dolzarb pedagogik muammo	291
Qudratov J.J. Kimyo fanini o'qitishda yangicha pedagogik yondashuvlar	297
Mahramova Z.Yu. Uchinchi renessansning poydevorini yaratishda huquqiy ta'limg-tarbiyaning o'rni	303
Axralov Sh.S., Axrorova S.S. Raqamli ta'limg texnologiyalari asosida jadid pedagogik merosini o'quvchilarga singdirish orqali o'zlikni anglashni shakllantirish usullari	306
Рахмонова Г.Ш. Технологии духовно-нравственного воспитания	313
Zaripova D.A., Primova D.G'. Online learning and motivation: a self-determination theory approach	319
Khurramova F.M. Theoretical basis of the development of pragmatic competence in students of vocational education	326
Fayzieva N.N. The use of artificial intelligence for monitoring students' knowledge in higher education systems	331
Mahmudova Z.Sh. Theoretical foundations of gamification and its impact on education	336

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Абаев С. Диний экстремизм, терроризм ҳәм радикализмге қарсы гүрес стратегиясы	341
Norov N.J. Yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan, zararli oqim va g'oyalardan himoya qilishda husayn voiz koshifiy asarlarining o'rni	348



KREDIT-MODUL TA'LIM TIZIMIGA O'TISHNING ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASINI O'RGANISH

Sharaxmatova A.K.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Pedagogika” kafedrasи o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: kredit-modul tizimi, oliy ta'lif, huquqiy hujjat, adaptatsiya, individual ta'lif, akademik mobillik.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, высшее образование, нормативный акт, адаптация, индивидуальное обучение, академическая мобильность.

Key words: credit-modular system, higher education, regulatory framework, adaptation, individualized learning path, academic mobility.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada kredit-modul tizimining xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilingan. Mamlakatimizda ushbu tizimning yo'lga qo'yilishi bilan bogliq normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi haqida so'z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ:

В статье анализируется опыт зарубежных стран по кредитно-модульной системе обучения. Речь идет о принятии нормативно-правовых актов, регулирующих создание данной системы в нашей стране.

SUMMARY:

The article examines the experience of foreign countries in implementing the credit-modular learning system. Special attention is given to the development and adoption of regulatory legal acts governing the introduction of this system into the national educational framework.

Milliy ta'lif tizimini dunyo ta'lif tizimiga integratsiyalash jarayonini takomillashtirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi hukumati, Oliy ta'lif fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2013 – yildan buyon mamlakatimizdagi tibbiyat oliy ta'lif muassasalari, 2016-2017 – o'quv yilidan Toshkent davlat yuridik universitetida talabalar o'qtishning modul tizimi asosida ta'lif olayotgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2019 yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”da oliy ta'lif muassasalarida o'quv



jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish vazifasi belgilab berilgan. Bunga ko'ra, 2018 – 2019 -yildan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida kredit – modul tizimiga o'tildi. Shuningdek, 2023-yilda oliv o'quv yurtlarining 16 %, 2025-yilda 57 %, 2030-yilga kelib 85% da kredit-modul tizimi yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan. Hozir bizda ta'limning 40 foizigacha mustaqil ta'lim uchun ajratilgan bo'lsa, konsepsiaga ko'ra, bu ko'rsatkich 2030- yilgacha 60 foizgacha yetkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi 824-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida oliv ta'limda o'quv jarayonini kredit-modulli tizimga o'tkazish kabi dolzarb masalalar yechimi bayon etilgan. Shuning uchun yangi ta'lim muhitiga moslashuv jarayoni bo'lgan psixologik-pedagogik adaptatsiyani o'rGANISH hozirgi kunda dolzarb bo'lib bormoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 7 dekabrdagi "Professional ta'limda kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 648-sun qaroriga muvofiq, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tizimida texnikumlar bo'lgan vazirliklar va idoralar bilan hamkorlikda 2024-2025 o'quv yilidan boshlab texnikumlarda ham kredit-modul tizimida o'quv jarayonini tashkil etish vazifasi topshirildi.

Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, ta'lim muassasalarini zamon talablariga moslashtirmasdan turib, ilmiy va texnologik muvaffaqiyatga erishish qiyin vazifadir. Shu sabab, mamlakatimizda ta'limning kredit-modul tizimiga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni amalga oshirilmoqda. Bu davrda yangi tizimning ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sirini kuzatmoqdamiz.

Bolonya deklaratsiyasiga a'zo davlatlarda ta'lim modul-kredit tizimiga asoslanadi. Yevropaning aksariyat mamlakatlarida zamonaviy va boshqa turdag'i universitetlarda "Umr bo'yi ta'lim olish" konsepsiysi doirasida qo'llash imkonini beradigan tizim - ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System) ECTS baholarni ballarga («kredit»larga) almashtirish tizimi deb ataladi. Ushbu tizimga 1989 yilda asos solingan bo'lib, talaba olgan bilimning bahosini bir davlat oliv ta'lim muassasasidan ikkinchi davlat oliv ta'lim muassasasiga erkin ko'chishini, erishilgan ko'nikma va malakasini erkin tan olinishini ta'minlaydi. ECTS tizimida ta'lim olishning barcha turlari va o'quv yuklamasining barcha ko'rinishlari uchun qo'llanilishi mumkin .

«Kredit soat» tizimi dastlab AQShda paydo bo'lgan va takomillashgan. 1969 yilda Garvard universiteti Prezidenti, amerika ta'limining atoqli namoyandasasi Charlz Eliot birinchi bo'lib ushbu tushunchani kiritdi va 1870-



1880 yillar davomida fan hajmini kredit-soatlarda o‘lchashga imkon beruvchi tizimni joriy qildi. 1892 yildan «kredit soat» tizimini joriy qilishning ikkinchi bosqichi boshlandi. Bunda AQSh milliy ta’lim qo‘mitasi “kollej-maktab” bo‘g‘inini yaxshilash, o‘rta maktablarda o‘quv dasturlarini standartlash maqsadida nafaqat kollejlarda, balki o‘rta maktablar uchun ham “kredit” tushunchasini joriy qildi va keyinchalik bakalavriat dasturlari mazmunini baholashning kredit tizimini magistratura va doktorlik ta’lim bosqichlarigacha kengaytirdi.

Xitoy ta’lim tizimini Chinxua universiteti, Pekin davlat universiteti, Pekin texnika universiteti, Jilian universitetlari misolida o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, Xitoy Xalq Respublikasida Amerika ta’lim tizimiga o‘xhash uch darajali ta’lim tizimi qabul qilingan. Bakalavr darajasini olish uchun 120 kreditni, magistr darajasini olish uchun – 30-60 kreditni qo‘lga kiritish kerak. O‘quv yili ikki semestrga ajratilgan va 1-sentabrdan boshlanadi. Biroq, semestr davomiyligi Amerika tizimidan farq qilib 20 haftani tashkil qiladi. Universitetlarda o‘qish 4-5 yil, tibbiyot universitetlarida – 7-8 yil va kasbiy-texnik maktablarda – 2-3 yilni tashkil etadi.

Yevropa kreditlarida doim talaba qancha vaqt auditoriyada shug‘ullanishi haqidagi masala ochiq qoladi, va bu raqam fan, o‘qituvchi yoki universitetga qarab o‘zgarishi mumkin. 2004 yilning aprelida Ednet ta’lim tarmog‘i tomonidan o‘tkazilgan “Ta’lim bozorini globallashtirish: Markaziy Osiyo universitetlari reformalari” mavzusidagi IV Xalqaro anjumanda 1 ECTS krediti - auditoriya mashg‘ulotlari, kollokviumlar, anjumanlar, kutubxonalaridagi bahsmunozaralar, tashqi tadbirlar va shu kabida qatnashishni, ya’ni barcha turdag'i kontakt mashg‘ulotlarini ham hisobga olgan holda 24-36 ish soatlariga teng degan xulosaga keltingan. ECTStizimida taxminan 60 kredit – bir akademik yil, 30 kredit – bir semestr, 20 kredit – bir trimestrdagi ta’limga mos keladi. Amerika krediti (bir semestrda auditoriyadagi 12-18 soat mashg‘ulotga teng) bilan taqqoslash uchun aytish mumkinki, Yevropa davlatlarida talabalar taxminan xuddi shuncha miqdorda auditoriyada shug‘ullanishadi, qolgan vaqt ni o‘qituvchi rahbarligidagi mustaqil ish deb hisoblash mumkin. ECTS kredit – fanning o‘quv yuklamalarini o‘zlashtirish uchun mehnat sarfini ifodalaydi, ish soatlari deganda esa – barcha turdag'i kontakt soatlar tushuniladi, deb aytish mumkin.

Kredit tizimlarining yuzaga kelgan keng qamrovli diversifikatsiyasi sharoitida ECTS tizimi ko‘p millatli Yevropa an‘analarini inobatga olgan holda turli ta’lim tizimlarini yaqinlashtiradi.



O'zbekistonda kredit ta'limgiz tizimiga asoslangan milliy modelni ishlab chiqishda, Yevropa ECTS krediti va Amerika kredit soatlari tizimlarining yutuqlarini inobatga olgan holda yuqori ta'limgiz sifatini va dunyo ta'limgiz jarayonlariga integratsiyalashish uchun ishonchli asosni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida keltirilgan dunyo ta'limgiz tizimlari tahlilidan kelib chiqib amerika kreditlari (USCS)ni evropa (ECTS) va Osiyo-tinch okeani (UCTS) kreditlariga aylantirish ancha oson: 1 Amerika kredit-soati = 1 Xitoy krediti = 1 Yapon sinov birligi = 2 Yevropa krediti = 2 Osiyo-Tinch Okeani krediti = 4 Britaniya krediti.

Rossiya Federatsiyasi oliy ta'limgiz tizimi modul tizimi XXI asrda yo'lga qo'yilgan bo'lib, ta'limgiz kompetentlik yondashuvi asosida amalga oshirilmoqda. Bunda modul, muayyan mehnat funksiyasini ishlab chiqish, talabalarning mehnat faoliyatini amalga oshirish va zarur ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradigan bir qator fanlarni o'z ichiga olishi kerak ekanligi ko'zda tutilgan .

Kredit ta'limgiz tizimini o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, dunyoning turli davlatlarida u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shunga qaramasdan, kredit ta'limgiz tizimining samarasi va maqsadga muvofiqligi uning ko'plab dunyo davlatlari ta'limgiz tizimlarida ko'proq tarqaganligi bilan asoslaniladi, chunki ta'limgiz dasturlarining talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi ijodiy faollilikni va bilim olishga o'zini safarbar qilishga, oxir-oqibat ta'limgiz sifatini oshirishga imkon beradi.

Shunday qilib, chet davlatlari oliy ta'limgiz muassasalarida bu tizim tufayli talaba o'zlashtirgan fanlar (modullar) va imtihonlar, har qanday boshqa Yevropa universitetida ta'limgiz jarayonini davom ettirish imkoniyatini beradi. Tahlillarimiz natijasi shuni ko'rsatib turibdiki, kredit-modul tizimi dunyoning turli davlatlarida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Har bir davlat o'zining tizimga moslashuv modeliga ega. Shunga qaramasdan barcha davlatlarda bir xil ijobjiy natijaga erishilganligi kuzatilmoqda. Psixologik jihatdan ham talabaning ta'limgiz trayektoriyasini shakllantirishdagi bevosita ishtiroki, mustaqil tanlovi, uning ta'limgiz olishga yo'naltirilgan shaxsiy motivlarining kuchayishiga olib keladi. Bu tizim o'quvchilarda tashabbuskorlikni, ijodiy faollilikni, bilim olishga bo'lgan qiziqishni kuchayishiga, oqibatda ta'limgiz sifatini oshirish imkonini beradi.

Xo'sh, O'zbekistondagi oliy ta'limgiz muassasalarini kredit – modul tizimiga o'tkazish, ta'limgiz jarayoni ishtirokchilarini ushbu tizimga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlash uchun qanday ishlarni amalga oshirish kerak?



Bizningcha, avvalo, buning uchun har bir oliy ta’lim muassasalari uchun Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan oliy ta’lim muassasalari kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish mazmunidagi nizom ishlab chiqish. Bu asosda, ta’lim jadalligini ta’minlash maqsadida chet el oliy ta’lim muassasalari amaliyotidan kelib chiqqan holda, o’qitishning tizimli dasturini ishlab chiqish zarur.

Kredit-modul tizimining eng katta afzalliklaridan biri - fanlarni asosli ravishda qisqartirish hisoblanib, buni barcha oliy ta’lim muassasalarida joriy etish lozim. Masalan, Chirchiq davlat pedagogika universitetida avval, o’quv reja bo'yicha 40 dan ortiq fan bo'lgan bo'lsa, kredit – modul tizim joriy etilgandan so'ng, ularning soni 35 taga kamaydi. Ta’lim jarayonini shaffofligini ta’minlash va tizimlashtirishga, barcha oliy ta’lim muassasalarida yagona tizim HEMIS dasturi xizmat qilmoqda. HEMIS axborot tizimi — bu o’qituvchilarning kaliti, shaffoflikni ta’minlaydigan yagona platforma sifatida ma'lumotlar kiritiladigan baza hisoblanadi. Ushbu tizim oliy ta’lim faoliyatini avtomatlashtirish hisobiga ma'muriy xodimlar, professor-o’qituvchilar va talabalarga elektron ta’lim xizmatlarini taqdim etadi. Seminarlarda HEMIS dasturida ishslash, kredit-modul tizimida o’quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish, pedagoglar faoliyati va o’zlashtirishni baholash, tizimda me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ishslash, raqamlashtirish kabi muhim tamoyillariga ham urg‘u berilgan. Albatta, oliy ta’lim o’qituvchilarining HEMIS dasturida ishslash va kredit-modul tizimida o’quv jarayonini tashkil etishdagi bilim va tajribalari ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o’rein tutadi. Talabarga berilgan mustaqil ishlar uchun esa, maxsus elektron platforma yaratilishini ta’minlash. Bu platformaga talabalar, mustaqil ta’lim topshiriqlarini berilgan tartibda yuklab boradilar, o’qituvchiga esa uni og’zaki himoya qiladilar. O’z vaqtida mustaqil ishlarini saytga yuklamagan talabalar baholanmaydi.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi o’qituvchi va talabaning hamkorlikda ishslashida muhim omil hisoblanadi. Modulli ta’limda pedagog tinglovchining o’zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba esa yo’naltirilgan obyekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg‘u ham talabalarning mustaqil ta’lim olishiga qaratiladi. O’quv jarayonida mustaqil ta’lim olishning ahamiyati ortadi va bu kelajakda mutaxassislarining mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi hamda faolligini oshirishga olib keladi. Kredit-modul tizimida universitet talabalarini har doim o’qituvchi va kursdoshlaridan yordam hamda maslahat olish imkoniyatiga ega bo’ladi. Bu esa o’zaro hamjihatlikni mustahkamlaydi va jamoada ishslash ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son farmoni 08.10.2019 y.
2. “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 824-sonli qarori 31.12.2020 y.
3. “Professional ta’limda kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 824-sonli qarori 07.12.2023 y.
4. Sharaxmatova A. K. Kredit-modul tizimida o’qitish tehnologiyalaridan foydalanish – davr talabi. / “МУГАЛЛИМ ҲЭМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМДЕНДИРИҮЙ” ilmiy-metodik jurnali, №1, 2022. 99-103.
5. Шарахматова А. К. Адаптация студентов к кредитно-модульной системе обучения / “МУГАЛЛИМ ҲЭМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМДЕНДИРИҮЙ” ilmiy-metodik jurnali, №5/3, 2022. 100-103
6. Афанасев Д.В., Грызлов В.С. Компетентностный подход и кредитно-модульная система обучения / Высшее образование в России. 2012. №6. С. 21-27.
7. Крючкова К.С. Модульная система обучения в российских вузах как условие обеспечения академической мобильности студентов / Педагогические науки. 2018. С. 28-32.